

UNDALMALARNING IFODALANISHI VA TARKIBI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Xatamova Munisa Mamadulla qizi

Samarqand davlat Universiteti

Filologiya fakulteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada gap, uning o‘ziga xos jihatlari, sodda gaplar va murakkablashgan sodda gaplar ularni hosil qiluvchi birliklar, bu masalalar yuzasidan ayrim tilshunoslarning qarashlari, undalmalar, undalmalar xarakteristikasi, undalmalarning ifodalanishi va tarkibi xususida ayrim fikr va mulohazalar bildirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Gap, sodda gaplar, murakkablashgan sodda gaplar, birlik, undalma, undalmalarning ifodalanishi, undalmalarning tarkibi, sodda, yoyiq, murakkab, uyshuq undalmalar.

ABSTRACT

This article discusses the sentence, its specific aspects, syntactic and semantic features of units representing simple sentences, and inductive relations forming complex sentences.

Keywords: Sentence, simple sentences, complex sentences, introductory relation, vocative relation.

KIRISH

Ma’lumki inson nutqi unga berilgan barcha ne’matlar ichida eng buyugidir, kishilar fikrlari, maqsadlari, umuman, ongida hosil bo‘lgan barcha narsalarni nutqi orqali borliqqa chiqaradi. Gap esa ma’lum fikrni ifodalab, inson nutqining bir qismini tashkil etadi. Gaplar o‘z tarkibiy tuzilishi jihatidan turlicha, ya’ni sodda, qo‘shma, murakkab ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Gaplarning tuzilishiga ko‘ra ushbu turlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular shakllanish xususiyatlari, shakllantiruvchi vositalar, fikr anglatish ko‘lamlariga ko‘ra bir-birlaridan farqlanadilar. Nutqimizda eng ko‘p qo‘llanadigan gap turlaridan biri sodda gaplardir. Sodda gaplar kommunikativ vazifani bajaruvchi eng kichik, lekin muhim sintaktik birlikdir. Gaplarning qurilishiga ko‘ra boshqa turlari, ya’ni murakkablashgan sodda gaplar, qo‘shma gaplar, murakkab qo‘shma gaplarning shakllanishida ham sodda gaplar asos sifatida muhim o‘rin tutadi. Gap bo‘lishning ma’lum grammatik belgilari mavjud. Har qanday gapda, u bir so‘zdan

yoki ko‘p so‘zdan iborat bo‘lishidan qat’iy nazar, nisbiy fikr tugalligi va predikativlikning mavjudligi, grammatic jihatdan ma’lum qonun-qoidalar asosida shakllanishi o‘ziga xos intonatsiyaga (ohang) ega bo‘lishi shart. Yuqorida ko‘rsatilgan talablarga mos keladigan yakka so‘z yoki bir necha so‘zdan iborat bo‘lgan sintaktik birliliklar gap hisoblanadi. Gap so‘zlar va so‘z birikmalaridan tshkil topgan bo‘ladi. Ammo, nutqda sodda gaplar tarkibida gap bo‘laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan qismlar ham mavjud bo‘ladi. Ular alohida bo‘lak sifatida biror vazifa bajarmasa-da, lekin gapdan anglashayotgan fikrga u yoki bu darajada fikr qo‘shadi. Natijada, gap tarkibida murakkablashish hodisasi sodir bo‘ladi. Darslik, qo‘llanma va ilmiy adabiyotlarda ushbu gap turi “Murakkablashgan sodda gaplar” deya atalib kelinmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METDOLOGIYA

Murakkablashgan sodda gaplarning o‘zi alohida sintaktik hodisa ekanligi rus tilshunosligida A.R.Rudnev tomonidan asoslangan²⁶. O‘zbek tilshunosligida esa murakkablashgan sodda gaplar masalasi G‘. Abdurahmonov, H.Mahmudov, H.Boltaboyeva, B.O‘rinboyev, G‘. Abdurahmonovlar tomonidan nazariy ham amaliy jihatdan ishlangan, ular yuzasidan ayrim fikr va mulohazalar bildirilgan. Bundan tashqari, murakkablashgan sodda gaplarni murakkablashishiga sabab bo‘ladigan, shakllantiradigan vositalar mavjud, albatta. “O‘zbek tili grammatikasi” kitobida ushbu sintaktik birliliklarga “murakkab gap” atamasi qo‘llanilgan bo‘lib, uning tarkibiy shakllanishi haqida quyidagilar aytildi: “Murakkab sintaksisda sodda gap tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik konstruksiya va kategoriylar o‘rganiladi. Bular quyidagilar: gapning ajratilgan bo‘laklari, undalmalar, kirish bo‘laklar”¹

A.G‘ulomov, M.Asqarovalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligidagi bu sintaktik birliliklar tarkibiy tuzilishini quyidagicha ko‘rsatadi: “Sodda gapni murakkablashtiruvchi elementlar xilma xil: uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, kirish konstruksiyalar va kiritma konstruksiyalar va undalmalar”²

G‘. Abdurahmnovning “O‘zbek tili grammatikasi” darsligida yuqoridagi “O‘zbek tili grammatikasi” kitobidagi qarash mavjudligini ko‘ramiz (ajratilgan bo‘lak, undalma, kirish bo‘laklar)³.

B.O‘rinboyevning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida murakkablashgan sodda gaplarni murakkablashtiruvchi vositalarga quyidagilarni kiritadi: uyushiq

²⁶ Руднев А. Р. Синтаксис осложненного предложения. М, 1959.

¹ Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. Т.: Фан, 1976, 202 б.

² Юкоридаги асар. 140 б.

³ Юкоридаги асар. 141 б

bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo‘laklar, sifatdosh, ravishdosh o‘ramlar, harakat nomli tizimlar...⁴

Bunda murakkablashtiruvchi vositalar batafsil berilgan. Xuddi A. G‘ulomov, M. Asqarovarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ko‘rsatilganidek uyushiq bo‘laklarni ham murakkablashgan sodda gaplarni shakllantiruvchi vosita sifatida kiritilgan.

N.Mahmudov va A.Nurmonovlar esa undalmalar, kirish va kiritma qurilmalar, ajratilgan bo‘laklar, sifatdosh va ravishdosh o‘ramlar, harakat nomli tizimlar, ishtirok etgan gaplarni murakkablashgan gap deb hisoblaydilar¹.

NATIJALAR

Yuqoridagilardan anglashimiz mumkuni, murakkablashgan sodda gap sintaksisida gap tarkibida kelib, ularni murakkab gapga aylantiruvchi sintaktik qurilma va kategoriylar o‘rganiladi. Ular quyidagilar: Gapning ajratilgan bo‘laklari, undalmalar, kirish va kirimlar. Biz ushbu maqolamizda murakkablashgan sodda gaplarni vujudga keltiruvchi konstruksiyalardan biri undalmalar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ifodalanishi va tarkibi xususida suhbatlashmoqchimiz. Undalma - so‘zlovchi bilan tinglovchining munosabatini ko‘rsatadi. So‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabati murojaat qilish, undash orqali yo‘lga qo‘yiladi. So‘zlovchi yoki tinglovchining bu xil munosabati, undashni ifodalovchi so‘z grammatikada “undalma” hisoblanadi. Undalma keng ma’noda kimga yoki nimaga qaratilgan nutq jarayonini ko‘rsatadi, tor ma’noda esa so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildiradi. Shunday qilib undalma nutq jarayonida murojaat qilish, xitob qilishni anglatsa, grammatikada “undalma” termini bilan yuritiladi.

Undalma orqali so‘zlovchining nutqi shaxslarga qaratiladi. Ma’lum bir maqsadni amalga oshirish uchun so‘zlovchi tinglovchiga undaydi, murojaat qiladi. Shunga ko‘ra murojaat qilingan, undalgan shaxsnинг ifodasi bo‘lgan so‘z undalma bo‘lib keladi.

MUHOKAMA

Undalmalar asosan, bosh kelishik shaklida keladi. Bu jihatdan u egaga o‘xshaydi. Lekin undalmalar undosh intonasiysi, pauza bilan ajralib turishi hamda kesim bilan sintaktik aloqaga kirishmasligi bilan egadan farqlanadi. Undalmalar ko‘proq so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxsni ifoda qiladi: kechir meni, onajon, ishga ko‘milib ketdim (Ya). Undalmalar o‘zbek tilida turli turkum so‘zlar orqali ifodalaniши mumkin. Ular quyidagicha turkum so‘zleri bilan ifodalaniadi:

- 1) ot bilan: Bilasizmi, Ikrom, ko‘klam shabodasi yurib qoldi (S.A.).
- 2) otlashgan sifat bilan: Xo‘sish, yaxshilar, nima qilmoq darkor? (O.Yo.).

⁴ Юқоридаги асап. 120 б

⁵ Н.Махмудов, А.Нурмонов. “Ўзбек тилининг назарий грамматикаси”. Т.: 1995, 98 б.

3)otlashgan son bilan: Uchinchilar, yakuniy nazoratlarga yaxshi tayyorgarlik ko‘ring!

4) otlashgan sifatdoshlar bilan: Ey, sportda g‘olib chiqqanlar, sizlarga shon-sharoflar bo‘lsin!

5) undov bilan: Hoy, seni kutib turishibdi.

6) frazeologizm bilan: Xayr, o‘g‘lim, oq yo‘l bo‘lsin, xayr, ko‘zim qorasi (H.O.).

7) bir butun holda qo‘llanadigan bog‘lamalar bilan: Butun dunyo tinchliksevarlari, birlashingiz!

Undalmalar tarkibiy tuzilishi jihatidan farqlanadi. O‘zbek tilshunosligida amalga oshirilgan tadqiqotlatga suyangan holda ularni quydagicha guruhlarga ajratishimiz mukin.

1.Yolg‘iz undalmalar

2.Yoyiq undalmalar

3.Murakkab undalmalar

4.Uyushuq undalmalar.

1.So‘zlovchining nutqi bir shaxs, yoki predmetga qaratilgan bo‘ladi. Fikr o‘ziga qaratilgan shaxs, predmet nomini bildiruvchi so‘zlar undalma vazifasida keladi. Bu undalmalar bir so‘zdan iborat bo‘ladi. Bir so‘zdan iborat undalmalar yолиг‘из undalmalar hisoblanadi. Yolgiz undalmalar tub, yasama, qo‘shma, otlardan bo‘lib, yakka yoki takror holda keladi:

To‘kilgandan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan.(A.Q.)

Amin bo‘l, qizaloq, unutmaymiz hech,

Zafar kunlarida yodlanar noming. (Uyg‘un).

Mamlakat emas Mirzacho‘l. (G‘.G‘.)

Og‘a, ayamga xat yozibsiz-ku? (A.Q.)

Dada-chi, dada, bugun biz poyezd-poyezd o‘ynadik.(A.Q.)

2.Yoyiq undalmalar

So‘zlovchining nutqi bir shaxs, yo bir predmetga qaratilgan bo‘ladi. Nutq qaratilgan shaxs, yo predmetni bildirgan so‘zlar undalma vazifasida keladi. Bu undalmalar o‘zlariga tegishli aniqlovchilar, izohlovchilar bilan kelishlari mumkin. Bunday undalmalar yoyiq undalmalar hisoblanadi. Yoyiq undalmalar tarkibidagi elementlarning biri undalma hisoblansa, qolganlari shu undalmaning aniqlovchisi, izohlovchisi bo‘lib keladi. Yoyiq undalmalarning ba’zilari sintaktik birliklardan ba’zilari frazeologik birliklardan tarkib topadi. Sintaktik birikma holida kelgan yoyiq undalma tarkibidagi elementlarning ba’zilarining semantikva grammatik munosabatlarida erkinlik bo‘lsa, ba’zilarida esa bunday erkinlik ko‘rinmaydi:

1.To‘g‘ri, o‘rtoq Rahimjon, mix ham egilsa, to‘g‘irlab yana qoqiladi (A.Q.).

2.Yo‘ling oydin, olganing oltin bo‘lsin, aziz o‘g‘lim (G‘.G‘.).

3.Qishloq xo‘jaligi xodimlari! Chorva mollari mahsuldorligini keskin suratda oshirishga va ularning sonini ko‘paytirishga erishingiz.(O‘.H).

3. Murakkab undalmalar

Undalma yolg‘iz va yoyiq bo‘lganidek, murakkab bo‘lishi ham mumkin. So‘zlovchi o‘z suhbатdoshiga murojaat qilib, uni turlichа ataydi va unga nisbatan o‘zining munosabatini bildiradi. Natijada, so‘zlovchining nutqi qaratilgan obekt bitta bo‘lib u har xil nomlanadi. Shunday qilib, undalma bir obektning turli xil xususiyatlarini ifodalovchi so‘zlardan bo‘ladi. Bu undalmalar murakkab undalma bo‘lib, ikki yoki undan ortiq yolg‘iz undalmalardan tarkib topad:

Mehnat, muhabbatning, sharaf, nomusning xalqimiz qalbida
Tantanasi-chun, sipqoring, Azizlar, Do‘srlar, Yoronlar... (G‘G’).

4.Undalmalar uyushib ham keladi. Uyushuq undalmalar ikki va undan ortiq undalmalardan iborat bo‘lib, so‘zlovchining bir vaqtda bir necha shaxs va obektlarga undashini bildiradi. Bu undalmalar undash obektning miqdoriga ko‘ra murakkab undalmalardan farq qilad, ya’ni uyushuq undalmalarda undash obekti ko‘p, murakkab undalmalarda esa undash obekti bittadir.

Hasan, Aziz, Ibrohim, yuklarni darhol tushiringlar.

Surauyo, Muhayyo, Ra’no, Muqaddas, ko‘zimni yashnatib kiyibsiz atlas!

XULOSA

Shunday qilib tilimiz nihoyatda go‘zal va serqirradir. Muloqot jarayonini vujudga keltiruvchi gaplar ham tuzilishi ifoda ko‘lami jihatidan bir-birlaridan farqlanadilar. Ana shunday hodisalarning vujudga kelishida boshqa birliklar qatori undalmalar ham ishtirok etadi. Undalma bir vaqtning o‘zida bir yoki bir necha obektga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Undalma bir obektni ifodalochi bir so‘zdan iborat bo‘lsa, u yakka undalma hisoblanadi. Yakka undalmalar aniqlovchilar bilan kengaygan holda kelishi mumkin. Bunda undalmalar birikmali bo‘ladi. Undalma bir necha obektni ifodalovchi, yoki bir obektni ifodalivchi bir necha so‘zdan iborat bo‘lsa, ular murakkab undalmalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Абдурахмонов F. Ўзбектили грамматикаси. Т.:Фан,1996.
2. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбектилинингназарий грамматикаси.Т.:1995.
3. Фуломова А., Асқарова М.Ҳозирги ўзбек адабий тили.Т.:Ўқитувчи,1997.
4. Ўзбек тили грамматикаси.2қисм.:Фан,1996.
5. Руднев А. Р. Синтаксис осложненного предложения. М, 1959.
6. Турсунов У., Мухторов Ж. Ҳозирги замон узбек тили. Морфология, Самарканд, 1960.
7. Сураймонов А. Х. узбек тилида атов гап, ундалма ва вокатив гаплар, Самарканд, 1956.